ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

BUXORO AMIRLIGIDA SAROY UNVONLARI VA MANSABLAR

Eshmamatova Oysanam

ShDPI ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20350908

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligidagi davlat boshqaruv tizimi, saroy unvonlari va mansablarning vazifalari yoritilgan. Devonbegi, naqib, otaliq, ko‘kaldosh kabi mansablarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, harbiy va diniy mansablarning faoliyati ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, saroy mansablari, devonbegi, naqib, otaliq, harbiy tizim.

Abstract: This article describes the system of state administration, palace titles and official positions in the Bukhara Emirate. The role of such positions as devonbegi, naqib, ataliq and kokaldosh in state governance is analyzed. Military and religious positions are also discussed.

Keywords: Bukhara Emirate, palace positions, devonbegi, naqib, ataliq, military system.

Аннотация: В данной статье освещаются система государственного управления Бухарского эмирата, дворцовые титулы и должности. Проанализирована роль таких должностей, как девонбеги, накиб, аталык и кокалдош в управлении государством. Также рассмотрена деятельность военных и религиозных должностей.

Ключевые слова: Бухарскии эмират, дворцовыедолжности, девонбеги, накиб, аталык, военнаясистема.

Buxoro amirligi Markaziy Osiyoning eng muhim va tarixiy davlatlaridan biri bo‘lib, asosan hozirgi O'zbekiston hududlarida joylashgan edi. Amirning saroydagi unvonlari va vazifalari mamlakatning siyosiy tuzilishi va davlatchilik an'analarini tushunishda juda muhimdir. Unvonlar va vazifalar faqat Amir hukmronligidagi davlat boshqaruvining nazoratini tashkil qilishga emas, balki mamlakat ichidagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Amirning unvonlari faoliyati va maqsadlariga ko'ra bir nechta asosiy toifalarga bo'linadi. (1)

"Amir ul-mo'minin" unvoni Buxoro amirlarining diniy yetakchilik maqomini va musulmon ummatiga raxnamolik vazifasini ifoda etar edi. Bu unvonga ko'ra, Amir islom dinining himoyachisi va musulmon jamiyatidagi asosiy shaxs hisoblanadi. Shuningdek, "Amir" unvoni asosiy boshqaruvchi sifatida hukmdorning barcha ichki va tashqi ishlarni boshqarish huquqini bildiradi. "Amir ul-mulk" unvoni mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va ichki xavfsizlikni ta'minlash vazifasini belgilaydi. Bu unvon Amirning ichki siyosatdagi vakolatlarining kengligi va mustahkamligini ta'kidlaydi. (2)

"Amir ul-lashkar" unvoni harbiy qo'mondonlikni anglatib, Amirning armiya boshlig'i va harbiy strategi sifatida davlatning himoya vazifasini bajaradi. Amirlikda davlat ishlarining samarali boshqarilishini ta'minlash uchun saroyda turli vazifalar va mansablar belgilangan.[1] Vazirlar, deb ataladigan yuqori mansabli amaldorlar mazkur vazifalar uchun mas'ul edi. Asosiy vazirliklardan biri bu "Vazir ul-vuzaro" edi, bu amaldor davlat boshqaruvining eng yuqori pog'onasi hisoblanib, barcha vazirlarni nazorat qilardi. Moliyaviy ishlar, soliqlar yig'imi va davlat byudjeti bilan shug'ullanuvchi "Vazir ul-mol" esa iqtisodiy boshqaruvning samarali yuritilishini ta'minlardi. "Doroshnavi" vazirlik, hozirgi terminologiya bilan aytganda, ichki ishlar vazirligi hisoblanib, ichki xavfsizlik va tartibni ta'minlashga yo'naltirilgan.(2)

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Shuningdek, Buxoro xonligidagi davlat boshqaruvi va mansablar tizimi tarixchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Jumladan, B.J. Eshonov va A.A. Odilovlar muallifligidagi “O‘zbekiston tarixi” kitobida davlat mansablari va unvonlari haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, Mirzohid Rahimov va Akbar Zamonov tomonidan yaratilgan “O‘zbekiston tarixi” asarida ham Shayboniylar davrida davlat tizimi, mansab va unvonlarning shakllanishi hamda rivojlanishi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Ushbu maqolani yozishda aynan shu ilmiy manba va tadqiqotlar asosiy adabiyot sifatida foydalanildi.(3)

Tahlil va natijalar

Buxoro xonligidagi davlat boshqaruvi tizimi o‘z davri uchun murakkab va mukammal tuzilgan siyosiy tizimlardan biri hisoblangan. Tarixiy manbalar, xususan, “Tuhfat ul-Xoniy” (“Tarixi Rahimxoniy”) asari hamda zamonaviy tarixchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvida saroy unvonlari va mansablar muhim o‘rin egallagan. Mazkur mansablar orqali davlatning siyosiy, iqtisodiy, harbiy va diniy hayoti nazorat qilingan.(2)

Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, davlat boshqaruvida urug‘-qabila vakillarining o‘rni katta bo‘lgan. Ayniqsa, mang‘it, kenagas, jaloir, xitoy-qipchoq va boshqa urug‘lar vakillari yuqori lavozimlarga tayinlangan. Bu holat Buxoro xonligida boshqaruv tizimi qabila-aristokratik tamoyillarga asoslanganligini ko‘rsatadi.(1) Shu bilan birga, davlat mansablariga tayinlashda hukmdorga sadoqat va siyosiy ishonch muhim omil bo‘lgan.

Xulosa

Buxoro xonligida davlat boshqaruvi tizimi uzoq yillar davomida shakllanib, takomillashib borgan. Davlatning siyosiy, iqtisodiy, harbiy va diniy hayoti turli mansab va unvonlar orqali boshqarilgan. Saroy mansablari davlat boshqaruvida muhim o‘rin tutib, hukmdor hokimiyatining mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Buxoro xonligida davlat boshqaruvi markazlashgan bo‘lsa-da, unda qabila vakillari va diniy arboblarning ta’siri katta bo‘lgan. Devonbegi, naqib, otaliq, ko‘kaldosh kabi mansablar davlat boshqaruvining asosiy tayanchi hisoblangan. Diniy mansab egalari esa jamiyatning ma’naviy va siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan.

Harbiy tizimning rivojlanganligi, qo‘shin tarkibining aniq qismlarga bo‘lingani va harbiy mansablarning mavjudligi Buxoro xonligida harbiy boshqaruv tizimi ham mukammal shakllanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Shayboniylar davrida Amir Temur harbiy san’ati an’analaridan foydalanilganligi harbiy sohada katta tajriba mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Tuhfat ul-xoniy” (“Tarixi Rahimxoniy”) asari.
2. Eshonov B.J., Odilov A.A. “O‘zbekiston tarixi”.
3. Rahimov M., Zamonov A. “O‘zbekiston tarixi”.
4. Темиров Ф., Халикова Н. “Бухоро амирлигида ташқи сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихи”. Scientific Progress, 2021.
5. Темиров Ф., Умаров Б. “Бухоро амирлигида оила, никоҳ ва мерос ҳуқуқининг амалда қўлланиши”. Scientific Progress, 2021.
6. Temirov F. “Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari”. Farg‘ona davlat universiteti, 2023.
7. Temirov F. “Of the journalistic work of Sadriddin Ayni concerning issues of Bukhara history”. Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research.